

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi**  
**Raising birinchi o‘rinbosari M.M.Mirzaevning**  
**2022-yil fevral oyida bajarilgan ishlari**

**Budjet daromadlari ijrosini ta‘minlash**  
**va qo‘shimcha manbalarni jalb etish**

2022-yilning fevral oyi uchun belgilangan 11,3 trln.so‘m prognoz ko‘rsatkichi 11,5 trln.so‘mga (102,0%) bajarilib, byudjetga 230,1 mlrd.so‘m qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi (tushumlar o‘tgan oying mos davriga nisbatan 204,7 mlrd.so‘mga (101,8%) o‘sdi).

Fevral oyida 11,5 mlrd.so‘m ta‘minlangan tushumlar quyidagi manbalar hisobidan shakllantirildi:

- hisoblangan soliqlarni undirish hisobidan 10,1 trln.so‘m;
- mavjud soliq qarzini undirish hisobidan 700 mlrd.so‘m;
- soliq nazorati tadbirlari hisobidan 400 mlrd.so‘m;
- soliq bazasi hajmini oshirish (xufyona iqtisodiyotni qisqartirish hisobidan 200 mlrd.so‘m;

– qo‘shimcha soliq ob‘ektlarini hisobga olish hisobidan 100 mlrd.so‘m byudjetga tushirildi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha 2022-yil fevral oyi uchun **2,4 trln.so‘m** belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari **2,6 trln.so‘mga** yoki 110,1 foizga bajarildi.

**Strategik rejalashtirish bo‘yicha**

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 28-apreldagi 249–son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Asl belgisi” Milliy axborot tizimida 6 ta dori vositalari va tibbiy buyumlarni, 5 ta suv va salqin ichimliklarni 5 ta maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazilib mahsulotlar katalogi moduliga sinov tariqasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlar (116 ta dori darmon, 33 ta suv sa salqin ichimlik, 762 ta maishiy texnika) joylashtirilishi ta‘minlandi.

## **Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo'yicha**

2022-yilning 1-mart holatiga jami 98 ta 59 253,3 mln so'mlik soliq nizosiga oid shikoyatlar kelib tushgan bo'lib, ularning barchasini belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi ta'minlangan.

Xususan, ushbu shikoyatlar soliq to'lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko'rib chiqilib, 19 ta (19%) 16 581,2 mln so'mlik murojaatda soliq to'lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 58 ta (59%) 36 568,1 mln. so'mlik murojaat bo'yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o'z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi hamda qolgan 21 ta (22%) 6 104,0 mln. so'mlik shikoyatlar yuzasidan o'rganishlar davom etmoqda.